

Andijon viloyat adliya
boshqarmasi boshlig'ining
2023-yil 6-fevraldagi
17-um-son buyrug'iga
1-ilova

Andijon viloyat adliya boshqarmasi, tuman (shahar) adliya bo'limlari, Yuridik xizmat ko'rsatish markazlari, Davlat xizmatlari markazlari hamda FHDY bo'limlarida favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish hamda harakat qilish yuzasidan tayyorgarligi bo'yicha 2023-yil uchun TASHKILIY KO'RSATMALAR

Yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oldini olish, adliya organlari va muassasalaridagi fuqaro muhofazasi tuzilmalari kuch va vositalarining doimiy shayligini ta'minlash, rahbariyat va xodimlarni favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilishga o'rgatish bo'yicha 2023-yilning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

favqulodda vaziyatlarni oldini olish, ularning oqibatlarini bartaraf etish, ishchi-xizmatchilarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish;

yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar xavfini kamaytirish bo'yicha profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish;

adliya organlari va muassasalari rahbarlari tomonidan ishchi-xizmatchilar xayotiga va salomatligiga xavf soluvchi avariya holatlarini oldini olish bo'yicha choralar ko'rilishini ta'minlash;

fuqaro muhofazasi tuzilmalarining kuch va vositalarini yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilishga tayyorlash;

fuqaro muhofazasi tuzilmalarini zamonaviy talablarga javob beradigan qutqaruv asbob-uskunalar va himoya vositalari bilan ta'minlash;

zaruriyat yuzaga kelgan hollarda favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi borasidagi huquqiy-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish;

yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar to'g'risida targ'ibot-tashviqot tadbirlarini kengaytirish;

Xo'jalik va mehnatni muhofaza qilish bo'limi tomonidan 2023-yil uchun asosiy tadbirlar rejasida belgilangan vazifalar yuzasidan amalga oshirilgan ishlar haqidagi ma'lumotlar **2023yilning 1-iyuliga** qadar hamda **2023-yil 10-yanvariga** qadar vazirlikka taqdim etiladi.